KONTEKSTUAL VA SITUATSION OMILLARNING KOMMUNIKATIV STRATEGIYA BILAN O‘ZARO TA’SIRINI O‘RGANISH

Nigora Mukhamedova Abdulxayevna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tilini o’qitish metodikasi -3 kafedrasi
katta o’qituvchisi
E-mail: muxamedovanigora40@gmail.com
Tel.: +998998030536

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24104415

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kommunikativ strategiyaning kontekstual va situatsion omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kontekstning ma’no talqinidagi o‘rni, situatsion sharoitlarning til vositalarini tanlashga ta’siri hamda samarali muloqotni ta’minlovchi pragmatik mexanizmlar yoritilgan. Shuningdek, kommunikativ strategiyalarning dinamik va moslashuvchan tabiati, ularning kommunikativ vaziyat va nutqiy maqsadlarga muvofiq ravishda o‘zgarishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari kommunikativ strategiyalarni shakllantirishda lingvistik, ijtimoiy va madaniy omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ strategiya, kontekst, situatsiya, pragmatika, diskurs, kommunikatsiya, nutqiy xulq-atvor, kommunikativ niyat, pragmatik omillar, muloqot.*

Аннотация: *В статье рассматривается взаимодействие коммуникативной стратегии с контекстуальными и ситуационными факторами в коммуникативно-прагматическом аспекте. Особое внимание уделяется роли контекста в интерпретации значения, влиянию ситуационных условий на выбор языковых средств и прагматическим механизмам обеспечения эффективной коммуникации. Исследование показывает, что коммуникативные стратегии являются динамичными и адаптивными структурами, зависящими от коммуникативной ситуации и социального контекста.*

Ключевые слова: *коммуникативная стратегия, контекст, ситуация, прагматика, дискурс, коммуникация, речевое поведение, коммуникативное намерение.*

Abstract: *The article examines the interaction between communicative strategy and contextual as well as situational factors from a communicative-pragmatic perspective. Particular attention is paid to the role of context in meaning interpretation, the influence of situational conditions on language choice, and pragmatic mechanisms that ensure effective communication. The study demonstrates that communicative strategies are dynamic and adaptive structures shaped by communicative situations and social environments.*

Keywords: *communicative strategy, context, situation, pragmatics, discourse, communication, speech behavior, communicative intention.*

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Zamonaviy tilshunoslikda kommunikatsiya jarayonini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [6]. Kommunikativ-pragmatik yondashuv tilni nafaqat grammatik tizim, balki muayyan kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish vositasi sifatida ham talqin qiladi [1; 5]. Shu sababli kommunikativ strategiyaning kontekstual va situatsion omillar bilan bog‘liqligini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kontekst nutqiy birlikni o‘rab turgan lingvistik va ekstralingvistik omillar majmuasi sifatida qaraladi **[6]**. U kommunikativ mazmunni to‘g‘ri talqin qilish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratadi. Tadqiqotchilar lingvistik, ijtimoiy va madaniy kontekstlarni farqlaydilar **[7]**. Madaniy kontekst esa kommunikativ strategiyalarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi **[2]**

Situatsion omillar kommunikatsiya sodir bo‘layotgan bevosita sharoitlarni ifodalaydi [6]. Kommunikativ maqsad strategiya tanlashda muhim omil hisoblanadi. Nutqiy harakat axborot berish, ishontirish, tanqid qilish yoki iltimos bildirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin [5]. Shu bois kommunikativ strategiyalar vaziyat va maqsadga mos ravishda tanlanadi [4].

Kommunikativ strategiya kommunikativ maqsadga erishishga qaratilgan nutqiy xulq-atvor rejasi sifatida talqin qilinadi [5]. Kommunikativ-pragmatik nazariyaga ko‘ra, strategiyalar qat’iy emas, balki o‘zgaruvchan va moslashuvchan tizimlardir [4]. Strategik moslashuv muloqot ishtirokchilarining fikr almashinuv jarayonida o‘z strategiyalarini vaziyatga mos ravishda o‘zgartirishini anglatadi [8].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita strategiyalar tanlovi ko‘pincha kontekst va ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi [2]. Bilvosita strategiyalar xushmuomalalik tamoyillarini saqlash hamda kommunikativ ziddiyatlarning oldini olish uchun qo‘llanadi [2; 4].

Kontekst va situatsiya kommunikativ strategiyani belgilasa, strategiya ham o‘z navbatida kontekstning talqin qilinishiga ta’sir ko‘rsatadi [6]. Mazmunning to‘g‘ri talqin qilinishi kommunikativ vaziyat, ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar va kommunikativ maqsadlarni hisobga olishni talab qiladi [7].

Pragmatik inferensiya suhbatdoshlarga bevosita ifodalanmagan ma’nolarni anglash imkonini beradi [3]. Graysning implikatura nazariyasiga ko‘ra, so‘zlovchilar ko‘pincha aytilganidan ko‘ra ko‘proq ma’no uzatadilar va bu ma’noni tushunish kontekstga bog‘liqdir [3]

Noqat’iy fikrlar noaniqlik, ehtimollik va taxmin ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi[4]. Ularning qo‘llanilishi ko‘pincha kommunikativ xavf, ishonch darajasi va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi [2]. Bunday birliklar kommunikativ strategiyaning moslashuvchanligini ta’minlaydi [8].

Tadqiqot natijalari kommunikativ strategiya kontekstual va situatsion omillardan ajralgan holda mavjud bo‘la olmasligini ko‘rsatdi **[6]**. Kontekst kommunikativ niyatlarni talqin qilish uchun asos yaratsa, situatsion omillar strategik qarorlarni qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadi **[7]**. Shu bois kommunikativ strategiyalar kommunikativ-pragmatik tizimning dinamik va moslashuvchan elementi sifatida namoyon bo‘ladi **[8]**.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Austin J.L. *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press, 1962.

2. Brown P., Levinson S.C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Grice H.P. *Logic and Conversation*. New York: Academic Press, 1975.
4. Leech G.N. *Principles of Pragmatics*. London: Longman, 1983.
5. Searle J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
6. Van Dijk T.A. *Discourse and Context*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
7. Widdowson H.G. *Discourse Analysis*. Oxford: Oxford University Press, 2007.
8. Yule G. *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 1996.

© **Qo‘qon davlat universiteti** | **O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi**
© **“Smart Quill Publishing” nashriyoti** | **www.smartquillpublishing.uz**

HAR JABHADA NAMUNA - USTOZ

SH.Akramov
O’zbek tili kafedrasi dotsenti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24104660

Ma’lumki, biz yashab turgan olam, bu yorug’ dunyo insoniy munosabatlar bo’stonidir. Bu bo’ston gullab-yashnasa, tasavvurimizdagi jannatga aylansa insoniyat uchun bundan-da ulug’ baxt bo’lmasa kerak. Olamni jannatga aylantirish esa jamiyatni tashkil etuvchi jamiki insonlarning ibratli ishlari, insoniy fazilatlari va ezgu amallari orqali amalga oshadi. Bunday ezgu ishlar, ibrat namunasini barcha insonlarda mavjud deb ham aytib bo’lmaydi. Ba’zilarda namuna sifatida qaysidir jihati yaqqolroq, boshqa tomonlari yashirin tarzda namoyon bo’lishi mumkin. Biroq shunday insonlar ham borki, ulardan har jihatdan ibrat olsa arzigulik tomonlarini yaqqol ko’rish mumkin. O’zining ana shunday serqirra ibratli tomonlarini namoyon eta olgan va boshqalarga ayniqsa, hamkasbi va shogirdlariga singdirishga ulgurgan zullisonayn, o’z kasbiga fidoiy olimlardan biri Isroiljon Po’latovdir.

Hayotim davomida o’zining insoniy muloqoti, mehri va iltifoti, nasihati va qo’llab-quvvatlashi bilangina emas, bevosita turmush sharoitimda katta burilish bo’lishiga amaliy yordam ko’rsatgan Inson sifatida bu kishini ulug’layman. Ustozning bevosita ko’rsatgan yordamlari tufayli 1997-yilda 3 oylik malaka oshirish bilan bir qatorda ilmiy daraja olishga ham erishganim domalning katta yordamlari tufayli bo’lgan.

Isroiljon Po’latov oila borasida oilaparvar, muloqotning yuksak etikasiga egaligi, nafaqat o’zbek, balki rus tilida ham sof adabiy tilida so’zlashuvchi ikki tilli bilimdon sanalganlar. Kafedrada mudiri sifatida faoliyat yuritgan davrda u kishining o’ta talabchan va mehribonligi, ayni paytda juda nozik did sohibi ekanligini ham alohida ta’kidlash lozim. Kafedra jihozlarining saqlanishidan tortib ish hujjatlarining yuritilishi, o’qituvchilarning ish hujjatlari, kafedradagi bir payola choy ustidagi ibratomuz gurunglar, har sohada go’zallik va tozalikka bo’lgan e’tibor, xatto dasturxonga non ushatishdan choy qaytarishlarigacha bo’lgan o’gitlari bilan yoshlarni hayotga tayyorlashdek katta xizmatlarini hech kim inkor eta olmaydi. I.Po’latovni institut jamosi, xatto institut kutubxonasi xodimlari ham juda yaxshi ko’rar, diltortar suhbati bois ko’p bora choyga taklif etishgani va ular bilan dildan suhbatlashib, gaplashib o’tirishlari bot bot esimga tushadi.

Inson hayotda murakkab xilqat ekan. U kishining serqirra ijobiy jihatlari borki, insonlar o’zaro yaxshi suhbatga chorlaydi, o’zaro munosabatlarda, hurmat-e’tiborlari tufayli bir-birlarini yaxshi o’rganadi, yaxshi dilkash, yaxshi suhbatdosh shaxs sifatida kashf etib o’ziga chorlaydi, e’zozlaydi hurmatini joyiga qo’yib ijobiy hislatlari orqali xotirlaydi.

Устоздан ko’p narsani o’rganish, ibrat olish talabalik davrimizdan boshlangan. Xorazmning Gurlan tumanidan Bozorboy Begimov degan kursdoshim bilan dam olish kunlarida domlaning hovlilarida ko’p bora bo’lganmiz. Domlaning oilaparvarligi, nozikta’b va har bir narsaga o’ta e’tibor bilan qaraydigan Inson ekanliklarini o’sh paytlardayoq sezganman, o’zimga xulosa chiqarganman.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Bizni Ustoz sifatida o’qitgan, o’gitu nasihatlari bilan tarbiyalagan kishi bilan hamkasb sifatida faoliyat olib borishni o’sh kezlari hayolimga ham keltirmaganman. Ne baxtki, o’qishni tugatib, institutda faoliyat boshlashim, aspiranturadan qaytgach domla bilan bir kafedrada ishlash nasib etdi. Bu davrda Ustozdan yana ham ko’r narsalarni oldik, o’rgandik desam also xato bo’lmaydi. Ayniqsa kafedra mudiri sifatida olib borgan rahbarlik davrlari men uchun bir umrlik faoliyatimda asqotgani, kafedrani domla kabi boshqarishga harakat qilganimni hech esdan chiqarmayman. Kafedra a’zolarini bir oila kabi birlashtirish, bir-birlarini qo’llab-quvvatlash, malaka oshirish yoki ilmiy ish bilan bandlik paytlari dars mashg’ulotlarini hashar yoli bilan qoplash orqali yordam qilish, kafedrada qisqa fursatli choy ustida gurunlar tashkil qilib, ham vaqtni ham mablag’ni tejash kabi ibratli fazilatlarini kafedra mudiri vazifasida ishlagan kezlarim qanchalik foydali ekanligini his etganman. Domlaning rahbarlik faoliyatlari mehr va mehribonlik bilan yo’g’rilgan. Meni shu oily ta’lim dargohida qolib ishlashimga sababchi Uztoz filologiya fanlari doktori O.Bozorov bo’lgan bo’lsalar, u kishi bilan birga ilmiy daraja olishimizga katta sharoitlar qilib bergan, kezi kelganda o’rnimizga dars mashg’ulotlarimizni o’zi o’tib, bizni erkin tadqiqot olib borishimizga g’amxo’rlik qilgan, vaqti kelganda ishchanlik hamda talabchanlik bilan a’zolarni boshqarish, ish hujjatlarini vaqtida kamchiliklarsiz o’rniga qo’yishdek ibratli ishlarda namuna bo’lgan Insonni hech qachon unutib bo’lmaydi. Yoshlari katta bo’lib nuroniylar qatori hafaqada bo’lgan paytlarida ham hamkasblari, shogirdlari holidan xabar olib, o’zi ishlagan jamoadan, kafedradan ko’nglini butunlay uzib keta olmagan fidoiy Ustoz Isroiljon Po’latov hozir hayot bo’lganlarida 76 yoshni qarshilagan bo’lardilar. Ustozni Olloh rahmatiga olgan bo’lsin, joylarini jannat bog’aridan qilgani rost bo’lsin. Ustoz hamisha biz kabi ko’plab shogirdlari xotirasida hamisha porloq bo’lib qoladi.

“СЎЗ КЕНГАЙТИРУВЧИ”СИ ХУСУСИДА

Ш.Акрамов, ҚДПИ доценти

Сўз(аниқроғи лексема) гапнинг қурилиш ашёси бўлганлиги сабабли унинг кенгайтирувчилари сўзга ҳамиша ҳамроҳ бўлади ва гап қурилишига билвосита бўлса ҳамки таъсир этади. Чунки бизнинг нутқимиз давомли бўлиб, унинг бирликлари ўзаро бирин-кетинликда жойлашади.

Сўз кенгайтирувчилари сўзга эргашган, тобелашган қисмлар сифатида унинг олдидан жой олади. Бунда ҳам туркий тилларнинг синтактик ўринлашиш қонунияти, яъни олдинги сўзнинг тобелиги, кейинги сўзнинг ҳокимлиги сақланишини эътироф этиш зарур.

"Сўз кенгайтирувчиси" дейилганда сўзнинг маъновий боғлашув аъзолари (семантик валентлик актанти) тушунилади. Сўз боғлашуви(бу атама Ш.Раҳматуллаев томонидан киритилган) сўзнинг маъноси томонидан белгиланиши ва нутқда воқеланиши сабабли тилшуносликда сўзнинг маъновий ҳамда синтактик боғлашуви (семантик ва синтактик валентлик) анча мунозараларга сабаб бўлди. Мазкур тадқиқимиз ҳам синтактик боғлашувни лисоний (маъновий) боғлашувнинг нутқдаги воқеланишидир деб баҳоловчи талқинларга таянади. Маъновий боғлашувда сўз ўзининг луғавий маъно имкониятларини кўрсатиш учун сўз шаклларни ўзига бириктира олиш қобилиятларини намоён этади. Бу хусусиятни муаллим,

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

бой, яхши, ёзди каби сўзлар мисолида аниқлаштирмоқчи бўлсак, уларнинг қуйидаги тур сўзлар билан кенгайиш имкониятларини кузатишимиз мумкин:

1. Сифат ёки сифатловчи сўзлар билан: яхши муаллим, қобилиятли муаллим, катта муаллим, моҳир муаллим.

2. Миқдорий сўзлар билан: икки муаллим, учтадан муаллим, тўртала муаллим.

3. Фан, ўрин-жой, вақт белгиси маъноларини билдирувчи сўзлар билан: адабиёт муаллими, қишлоқ муаллими. Ҳозирги давр муаллими...

4. Шу касбдаги шахсга алоқадор бўлган нарса-буюм, белги-хусусиятни ифодаловчи сўзлар билан: муаллим китоби, муаллим хонаси, муаллим турмуш тарзи, шунингдек, муаллим санъаткор, муаллим ёзди, муаллим хурсанд бўлди, муаллим жамоатчи каби. Бу каби м у а л л и м сўзидан олдин ва кейин кела оладиган сўзлар билан бирика олиш м у а л л и м сўзининг маъновий боғлашуви(семантик валентлиги)дир. Я х ш и сўзи ўзидан кейин келган от ва феъллар билан бирика олади: яхши бола, яхши китоб, яхши ўқимоқ, яхши эшитдим. Қиёслаш маъносини юзага чиқарганда бу сўз ўзидан олдин чиқиш келишигидаги от ёки олмош билан кенгайиши мумкин: олмадан яхши, бундан яхши каби. Натижали фаол ҳаракатни ифодалайдиган "ёзди" феъл-лексемасининг боғлашуви юқоридаги сўзлар валентлигидан кўра кенгроқдир. Одатда тилшунослигимизда бундай сўзларнинг қуйидаги тур боғлашувлари қайд этилади:

1) бажарувчи (агенс): Мен ёздим. Салим ёзди.
2) манба (объект): Мен хатни ёздим.
3) пайт (темпоралис): Бугун Салим хатни ёзди,
4) ўрин (локалис): Бугун Салим хатни мактабда ёзди.
5) холат: Салим бугун мактабда хатни тез ёзди.
6) усул, восита: Салим бугун мактабда хатни қалам билан тез ёзди.
7) сабаб-мақсад: Салим бугун мактабда қасддан бу хатни қалам билан тез ёзди.

Кўриниб турибдики, қандай турдаги сўзлар билан бирика олиш тўлалигича сўзнинг луғавий маъносига боғлиқ. Сўз боғлашувларида сўзнинг луғавий маъносини ойдинлаштирувчи ашёлар акс этади.

Тил ҳодисаларига чуқур илмий-назарий ёндашиш анъанавий тилшунослигимиздаги талқинлар тизимига умумийлик ва имконият (лисоний бирликни), хусусийлик ва воқелик(нутқий бирлик)дан фарқлаб ўрганишни тақозо этади ва натижа кўрсатадики, нутқий синтаксисдаги гап лисоний(тил сатҳидаги) синтактик гапдан батамом фарқланади.

Лисоний синтактик гап-[WPm]нинг кенгайтирувчилари қуйидагича кўриниш касб этади:

а) модал кенгайтирувчи;

б) шахс кенгайтирувчи;

в) ҳолат кенгайтирувчи.

Бу кенгайтирувчиларни ўзбек тилшунослигида ҳозиргача атаб келинаётган терминлар, номланмалар асосида:

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

а) кириш; б) эга; в) ҳол, деб аташ мумкин.

Кириш, эга, ҳоллар қандай сўзлар ҳузурида келганлиги ва қандай сўзлар билан ифодаланганлигига кўра ранг-баранглик касб этади. Ҳоллар заиф бошқарувли воситали тўлдирувчини ҳам ўзига қамраб олиш хусусияти эга.

Тўлдирувчи сўз кенгайтирувчиси бўлиб, у ҳозирги воситасиз тўлдирувчини кучли бошқарувли жўналиш, чиқиш (ўзаро алмашина оладиган кучли бошқарувли) тўлдирувчиларини, орттирма нисбатнинг субъект тўлдирувчиларини ўз ичига олади. Аммо булар гап қурилишида мустақил мавқе эгалламайди.

Гап бўлаклари мавқеини юқоридаги фикрларимиз асосида белгилаш, содда гап синтаксисини тамоман янгича қайта қуриш имкониятини бера оладиган омилдир.[180]

Гап бўлакларисиз гап шаклланмайди. Улар гапни шакллантирибгина қолмасдан, гапда маъно, мазмун ифодалаш учун хизмат қилади. Мана шу гап бўлаклари ичида аниқловчи иккинчи даражали бўлак сифатидаги мавқеи жиҳатидан тўлдирувчига яқин туради. Шунинг учун аниқловчи бўлакнинг гап қурилишида тутган ўрни асосан сўз кенгайтрувчилиги билан ажралиб туради.

Маълумки, аниқловчи гапнинг иккинчи даражали бўлаклари қаторида ўзига хос аҳамиятга эга бўлиб, у предметнинг белгиси, қарашлилигини ифодаловчи гап бўлагидир. Бунда белги предикатив йўл билан эмас, балки, атрибутив йўл билан аниқланади. Аниқловчининг белги англатиши предметнинг бирор сифати, хусусияти, миқдори ёки қарашлилик кабиларини ифодалашдан иборатдир. Аниқловчи белги ифодалар экан, у асосан отга боғланиб келади. Бу от эса гапда турли гап бўлаклари бўлиб келаётган бўлиши мумкин, бироқ унинг аниқловчилигига таъсири деярли йўқ эканлиги анъанадан ҳам маълум. Бошқача айтганда, аниқловчи гапда феъл-кесимдан бошқа барча бўлакларга боғлана олади, хатто от-кесимга ҳам. Агар белги билдирувчи бир гапда аниқловчи бўлиб келса-ю, бошқа гап таркибида худди шу сўз феъ-кесимга боғланиб келадиган бўлса, анъанага кўра вазият ҳоли вазифасига ўтиши мумкин. Масалан: *Синглим чиройли кўйлак сотиб олди. – У шеърни чиройли ўқийди.* гаплари қиёсланганда бунга амин бўламиз. Кўринадики, аниқловчи асосан отга боғланади. Феълга боғланганида эса вазият ҳоли бўлиб келади.

Аниқловчининг гапда бажарадиган вазифаси ҳам турличадир. Сўзлар олдидан аниқловчи келтирганимизда, сўз маъноси ойдинлашиб, конкретлашади. Масалан, олма деганимизда, умумий тушунча кўз олдимизга келса, қизил олма деб, унинг олдидан аниқловчининг келтирилиши эса олма маъносини аниқлаштиради, яъни ҳамма олма эмас, олмаларнинг қизил олма тури тушунилади, бунда сўздаги умумийлик йўқолиб хусусийлик, конкетлашиш вужудга келадики, бу ҳам аниқловчи бўлагининг ўзига хос маъно қирраларидан саналади.

Лекин сўнгги даврда тилшунослигимизда гап маркази, сўз кенгайтирувчиси, гап кенгайтирувчиси ёки валентлик атамалари ҳам бирмунча кенг миқёсда қўлланилаётганлигининг гувоҳи бўлиб турибмизки, бу атамаларнинг қўлланилаётганлигига

[180] Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари. Наманган 2006. 303- б.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

асосий сабаб, тилни система сифатида ўрганиш ёки тил ва нутқ ҳодисаларини фарқлаш борасидаги изланишларга бориб тақалади.

Худди шунинг аниқ тавсифи мактаб дарсликларида берилган аниқловчининг таърифида ҳам ўз аксини топган. Чунки бирор нарсанинг белгисини ёки қарашлилигини билдирган бўлак аниқловчи дейилади. Аниқловчи асосан гапда от ва отлашган сўзларга боғланиб келади. Бу таърифдан аниқловчининг, от ёки отлашган сўзларнинг кенгайтирувчиси бўлиб келишини англаш ҳам қийин эмаслиги сезилади. Хусусан, ҳамманинг яхши кийим кийгиси келади. Гапидаги “яхши” сифатловчи-аниқловчи “кийим” сўзига доимий равишда эргашиб келавериши мумкин. Бунинг исботи учун “кийим” сўзини бошқа сўзшакллар сифатида ифодалаш ҳам “яхши”нинг тобелиги сақланишини кўрсатади. Масалан:

Ҳамманинг яхши кийимдан кўзи қамашади.
Ҳамма яхши кийим учун астойдил ишлайди.
Ҳамма яхши кийинишга ҳаракат қила бошлади.
Ҳамма яхши кийина олади.

Кўриниб турибдики, “яхши” сўзи “киймоқ” сўзи маъноси билан узвий алоқадорлик касб этгани холда қайси гап бўлаги бўлиб келишидан қатъий назар шу сўзнинг ҳамроҳи сифатида келаверади. Бундан ташқари қаратқич аниқловчи вазифасида келадиган турда ҳам шу ҳолатни кузатиш мумкин. Аниқловчининг қаратувчи-қаралмиш шакли кўпроқ от билан от туркумидаги сўзларни боғлашга хизмат қилиши ҳам бунга ёрқин мисолдир.

Сўз кенгайтирувчи атамаси нисбатан янги бўлгани учун бу ҳақда тўхталганда, аввало унинг мазмунини англаш зарур. Яъни, “Сўз кенгайтирувчилари” сўзнинг маъновий валентлик аъзоларидир. Аниқроғи, лексема (сўз) ўз валентлигидан келиб чиқиб у ёки бу турдаги сўзлар ёки грамматик шакллар билан боғланиш ҳосил қилади ёки уни кенгайтира бошлайди. Буни гапнинг энг кичик қурилиш қолипи [WPm] мисолида кўрадиган бўлсак, сўз кенгайтирувчиларнинг гап маркази – кесим таркибидаги атов бирлиги (сўз) нинг маъноси билан алоқадорлигини сезиш қийин эмас. [W] аташ сатҳининг рамзи бўлиб, (нутқда у сўз, сўз бирикмаси ёки ибора бўлиши мумкин) гапнинг шу асосдаги кенгайиши сўз кенгайтирувчиларини юзага келтиради. Фалсафий тил билан айтганда, объектив борлиқ элементлари орасидаги реал алоқалар сингари, шу элементларнинг номлари бўлган тил воситалари (сўзлар)нинг ўзаро боғланишлари вужудга келади: *баҳор – фасли баҳор – мана гўзал баҳор; ёки ёз – хатни ёзмоқ – хатни қалам билан ёзмоқ – хатни акасига ёзмоқ* кабилар бунга мисол бўла олади. Бундай биркиш олдинги сўзнинг тобе, кейингининг эса ҳокимлик муносабатини инкор этмайди. Яъни, анъанадаги сўз бирикмаларининг ҳоким-тобелик муносабати сақланади. Бироқ сўз кенгайтирувчилар тушунчаси “сўз бирикмаси”, “ҳоким сўз”, “тобе сўз” тушунчалари билан тўқнашади. Бу тасодифий эмас. Чунки сўзнинг маъновий боғлашуви(семантик валентлик) нутқда синтактик боғлашув(синтактик валентлик) сифатида воқеаланади.[181] Сўзларнинг синтактик валентлиги эса сўз бирикмаларида гавдаланади.

[181] Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облегатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Анъавий синтактик таҳлил жараёнига назар ташласак, гап эга таркиби, кесим таркиби ва грамматик боғланмаган бўлаклар каби турларга ажратилиб, эга ва кесим атрофида кўпинча сўз бирикмалари ҳосил қилинади. Бу эса нутқий гаплар сўз бирикмаларининг бир-бирларига қўшилишидан эмас, марказий бўлакнинг кенгайтирилишидан келиб чиқиши ҳақидаги фикрни тасдиқлайди. Сўз кенгайтирувчилар кенгайтирилувчи сўз маъносига алоқадор бўлиб, гапда мустақил мавқе эгалламайди.[182] Шу сабабдан ҳам анъанавий аниқловчиларнинг гап бўлаклари орасидаги ўрни фақат муайян сўзларнинг маъносини конкретлаштиришга хизмат қилувчи сўз кенгайтирувчиси бўлиб келиши билан белгиланади.

A.QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR”ROMANI MATNI USTIDA ISHLASH.

L.Akramova, 35-maktab oily toifali o’qituvchisi

Dars maqsadi:



Metod: Interfaol, Klaster, sahna ko’rinishi, slaydlar.

Fanlar integratsiyasi: ona tili, tarix, milliy istiqlol g’oyasi.

Dars turi: o’quvchilarning BMKlarini rivojlantiruvchi, umumlashtiruvchi dars.

Dars jixozi: A.Qodiriy rasmi, “O’tkan kunlar” romani, marker, A4 formatdagi qog’oz, roman asosida ishlangan rasm, noutbuk.

Dars shiori : Eshitsam – esimdan chiqadi,
Ko’rsam esimda qoladi,
Ishtirok etsam - o’zimniki.

Kutilayotgan natija. O’quvchilar: yangi bilimlarni oson o’zlashtiradi, lirik qahramon kechinmalari ruhiy xolati asl insoniy tuyg’ularni his etgan xolda o’z-o’zini nazorat qilishni o’rganadi, nutqi va fikrlashi o’sadi, xotira qobiliyati mustaxkamlanadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: “Ma’naviyat” deganda nimani tushunasiz? O’quvchilar ma’naviyat so’zini izohlaydilar va ma’naviyatli inson qanday bo’lishini tushuntirib beradilar (*I.A.Karimovning **“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”** asaridani tsitatalar keltiriladi*).

II. O’tilgan mavzuni mustahkamlash.

O’quvchilar, biz o’tgan darsimizda qanday mavzu bilan tanishgan edik?

“O’tkan kunlar” romanini o’qib tugatib, mavzu tahlili qilingan.

[182] Акрамов Ш.Т. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол. НДА. Тошкент. 1997.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

O’quvchilar 3 guruhga ajratiladi: 1-guruh – Kumush, 2-guruh – Otabek,
3-guruh – O’zbekoyim.

Guruhlar avvalo, uyga berilgan topshiriqqa javob beradilar.

Uyga vazifa: “Men qahramonimning advokatiman” mavzusida rasmli klaster usulida tahlil qilib berish. O’quvchilar turli ramziy belgilar bilan o’z qahramonlari sifatini yoritib beradilar.

Namuna: Kumush – go’zal, vafodor, iboli.
O’zbekoyim – cho’rtkesar, uddaburon, ustamon.

Guruhdan bir o’quvchi qahramonlar sifatini sharhlab beradi.

O’quvchilarga mavzuni mustahkamlash maqsadida tezkor savollar beriladi:

Namuna: Zaynabning opasi – Xushro’ybibi.
Hasanali kim? – xizmatkor.
Otabekning otasi – Yusufbek hoji.
Zaynab Kumush uchun tayyorlagan taom – atala.

Savollarga javoblar olingach, yangi mavzu e’lon qilinadi.

III. Yangi mavzu:“O’tkan kunlar” romani matni ustida ishlash.

O’quvchilar, roman mazmuni bilan tanishib chiqdingiz. Qani aytinglar-chi romandan qanday taassurot oldingiz? Nimalarni o’rgandingiz?

O’quvchilar romandagi milliy urf-odatlar, ota-ona va farzand munosabati, er-xotin o’rtasidagi muomala madaniyati, insoniy tuyg’ular, mehr-oqibat, o’zaro hurmat tushunchalarini asardagi lavhalar orqali izohlab tushuntirib beradilar.

Shundan so’ng o’z ijodimdan quydagi she’rni o’qib beraman.

Qodiriyning “O’tkan kunlar”in
Orangizda yo’q o’qimagan.
Otabek yo Kumushbibiga
Atab she’rlar yozib yurmagan.
Tinglang qahramonlar nolasin,
Qodiriy ham topmas chorasin.
El shoiri Muhammad Yusuf,
Qo’shiq uning qalamiga mansub.

Darsga asar qahramonlari Zaynab, Otabek, Kumush kirib keladi. Ular shoir M.Yusuf so’zi bilan bitilgan “Zaynab qo’shig’i”, “Otabek qo’shig’i”, “ Kumush nolasi” ni rolli ijro etadilar.

Zaynab: Tengim boshqa, dedi yor,
Topdim desam tengimni.
Marg’ilonlik bir dildor
Tortib oldi begimni.
Nima bo’ldi bek yigit,
Bekangizga qarash yo’q?
Kumushdan ming o’rgilib,
Zaynabdan hol so’rash yo’q.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Taqdir derdim shum taqdir,
Ko’nglim ko’nsa – kuymasdim,
Begim Sizni men axir
Kumushdan kam suymasdim.
Qolsam – dardim bir dunyo,
Ketsam – bir uy ko’chim bor,
Kumushoyni keltirgan
Aravada o’chim bor.

Otabek Zaynabdan achchiqlangansimon kuylaydi:

Sen Shirinu men ham Farhod emasman,
Sen achchig’u men ham navvot emasman.
Zaynab, Zaynab menga aytma zoringni
Sen dilxun-u men ham dilshod emasman.
Senga qo’ysin suymaganni suyishni
SHunday yashash aytgil, ko’nglingga xushmi?
Seni quchib, sog’inaman Kumushni
Jon omon-u, o’zim hayot emasman.
Ey gul, suyib ne topding men yomondan
Bekman, sen yor tilaympn sultondan
Ko’z uzmasman men Marg’ilon tomondan
Senga ket ham, senga qol ham demasman...

Asta-sekin ular yoniga Kumush yaqinlashadi va deydi:

Sizga bir armon bo’lay, zolim begim
Jayron bo’lay, quvlab yetib oling begim.
Marg’ilonning yo’liga boshim qo’yib,
Jon beray Zaynab bilan qoling begim.
Kuyga sen nechun to’lg’onasan ko’ngil,
Otabekni jonidan suygan ko’ngil.
Bir quchoqda yashnagaymu ikki gul,
Men so’lay Zaynab biilan qoling begim.
Sig’madim kundoshni bu tosh shahriga
Dosh berolmam bu qarashlar zahriga(*Zaynabni ko’rsatadi*).
Yordan ayrildim qaro yer bag’riga,
Men o’lay Zaynab bilan qoling begim.(*Yig’lab chiqib ketadi)* .

Qahramonlar qalbidagi dard-hasratni tingladingiz, qani ayting-chi, Siz bular o’rnida bo’lgadingizda qanday yo’l tutar edingiz?

Muammoni o’qituvchi birgalikda hal qiladi.

IV.Mavzuni mustahkamlash:

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

SHundan so’ng asardagi eng ta’sirli fikr va jumlalar. Slayd orqali ko’rsatiladi va o’quvchilar izohlaydilar.



1.Kiroyi kuyaving shundoq bo’lsa

2.Bu xonadondan hech kim norizo bo’lib ketgan emas

3. Ota-ona orzusi

4.Bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma’qul ko’rinmaydi.

Yuqoridagi fikrlar kimga tegishli ekanligini va mazmunini sharhlab berishadi. O’qituvchi esa o’quvchilar fikrlarini to’ldirib, tarbiya bilan bog’laydi. Ota-ona hurmati, ota-ona va farzand muomala madaniyati, milliy qadriyatlarimiz tushuntiriladi.(*Agar imkoniyat bo’lsa, “O’tkan kunlar” kinofilmidan Otabek va ota-onasi o’rtasidagi suhbat epizodi qo’yib berilsa maqsadga muvofiq bo’ladi*).

Kompyuter orqali Qodiriy tilidan roman so’ngidagi voqealar, Otabekning keyingi hayoti, moziyga qaytib ish ko’rish xayrli ekanligi haqidagi fikrlari eshitiriladi.

Namuna: *Keyingi Marg’ilon borishimda yaqin o’rtoqlardan Yodgorbek to’g’risinda surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning 19-20-ochlik yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o’g’il qolibdir. O’g’illaridan bittasi bu kunda Marg’ilonning mas’ul ishchilaridan bo’lib, ikkinchisi Farg’ona bosmachilari orasida erkan. Bu kunda nom-u nishonsiz, o’lik-tirigi ma’lum emas, deydilar.*

Shundan so’ng o’qituvchi fikrlarni umumlashtirib darsni yakunlaydi.

V. Guruhlar olgan ballari e’lon qilinadi, g’olib guruh rag’batlantiriladi, o’quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: “O’tkan kunlar” romanidagi badiiy tasvir vositalarini aniqlash, maqollar va hikmatli so’zlarni yozish.

Istagim shul: sog’u omon bo’lgaysiz
Tilagim bul: eson-omon yurgaysiz.
Xayr.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari.

2.Q.Yo’ldoshev va boshqalar. Adabiyot. (*darslik*) Toshkent.2014 yil.

3.A.Qodiriy. “O’tkan kunlar” asari.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

4.M.Yusuf. Saylanma. Toshkent . 2007 yil.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz